

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ASLONOV AZIZBEK FAXRITDIN O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA YER RESURSLARINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 332.3:351.778(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavleniye avtoreferata dissertasii doktora filosofii (PhD)
po ekonomicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of the
Doctor of Philosophy (PhD) on economics sciences**

Aslonov Azizbek Faxritdin o'g'li

O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini
takomillashtirish..... 3

Аслонов Азизбек Фахритдинович

Совершенствование механизмов управления земельными ресурсами
в Узбекистане 25

Aslonov Azizbek Fakhriddin ugli

Improvement of land resource management mechanisms in Uzbekistan 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ASLONOV AZIZBEK FAXRITDIN O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA YER RESURLARINI BOSHQARISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.1.PhD/Iqt1121 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaxidov Gafurdjan Erkinovich

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qosimova Dilorom Sabirovna

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ahmedov Sayfullo Normatovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil "___" _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

O.Dj.Djuraboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, ekologik barqarorlikka erishish hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muvozanatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yerdan foydalanish tizimining takomillashtirilishi yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrar sektorning raqobatbardoshligini mustahkamlash hamda global iqtisodiy inqirozlarga bardoshlilikni oshirishga xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, barqaror iqtisodiy o'sish va barcha darajalarda iqtisodiy farovonlikni kuchaytirish uchun asos bo'ladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, "2050-yilga kelib dunyo aholisi 9 milliard kishiga yetishi kutilmoqda va bu oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini kamida 60-70 foizga oshirishni talab qiladi"¹. Bu esa yer resurslaridan oqilona, samarali va barqaror foydalanishni nafaqat milliy, balki global siyosiy-iqtisodiy ustuvorlik darajasiga olib chiqmoqda. Yerdan samarali foydalanish uchun jahon davlatlari tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: degradatsiyaga qarshi agrotexnologiyalarni joriy etish, organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yer monitoringi va raqamlashtirish, sun'iy yo'ldosh axborot texnologiyalaridan foydalanish, ekologik va resurs tejovchi innovatsiyalardan keng foydalanish kabilar shular jumlasidandir.

Jahonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Yerdan foydalanish va yer munosabatlari sohasida raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi, yer resurslarini baholash va monitoring qilish tizimlarini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning yangi iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, ekologik barqarorlik talablariga mos yerdan foydalanishning innovatsion usullarini rivojlantirish hamda yer resurslarini boshqarish tizimida institutsional islohotlarning iqtisodiy oqibatlarini ilmiy asoslangan tarzda baholash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi.

O'zbekistonda yer resurslaridan qishloq xo'jaligida oqilona foydalanish, tuproq sifatiga qarab qishloq xo'jaligini qayta ixtisoslashtirish, yerlardan samarali foydalanishni rag'batlantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va yer resurslarini hududiy tashkil etishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish"² bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu boradagi ustuvor vazifalarni samarali amalga oshirishda cheklangan yer resurslaridan foydalanishni samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish, yerga soliq solish va ro'yxatga olish, ipoteka va garov evaziga kreditlash yer qiymatini baholash va sotish yo'llari orqali yerni bozor aylanmasiga kiritish tamoyillarini asoslash, turli darajalarda yer resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning nisbiy qiymati va funksiyalarini bajarish xarajatlarining mutloq koeffitsiyentlarini hisoblash algoritmlarini takomillashtirish, yer resurslarini boshqarishning "Yagona ma'lumotlar bazasi"ning axborot texnologiyasini yaratish va uni qo'llashning davlat hokimiyatining ijara

¹ https://www.fao.org/fileadmin/templates/wsfs/docs/expert_paper/How_to_Feed_the_World_in_2050.pdf

² <https://strategy.uz/index.php?news=455&lang=uz>

organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalari bilan hamkorlikda sifatli ahborotlardan foydalanish yo'llari taklif etish, yer resurslarini samarali boshqarishning iqtisodiy omillarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” Strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006-son “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2017-yil 27-noyabrdagi PQ-3405-son “2018-2019-yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etish masalalari xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng o'rganilgan. Xususan, H.Blanke, P.Corning, S.W.Ciriacy-Wantrup, R.Kostanza kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida yer resurslaridan barqaror foydalanish va ularni samarali boshqarish masalalari tadqiq etilgan³.

MDH mamlakatlari olimlari orasida yer resurslaridan foydalanish va tizimli boshqarish muammolari bo'yicha S.Smironov, G.Paltsev, E.Gayvoronskiy, N.V.Novikova, A.Demyanenko, O.Kuznetsova kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan⁴. Ularning ilmiy izlanishlarida yer resurslarining ekologik barqarorligini ta'minlash, ularni

³ Blanke, H., & Corning, P. (2020). Resource Management in Agricultural and Industrial Systems. New York: Springer.; Ciriacy-Wantrup, S.V., & Jones, W. (2018). Land Resources and Economic Efficiency. Cambridge University Press.

⁴ Smironov, S., Paltsev, G., & Gayvoronskiy, E. (2019). Sustainable Land Use in the CIS Countries. Moscow: Nauka; Kuznetsova, O., & Novikova, N.V. (2021). Environmental Safety and Land Resource Management. St. Petersburg: EcoResearch; Umurzoqov, U.P., & Usmonov, A.R. (2017). Sustainable Land Management in Uzbekistan. Tashkent: FAN; Ahmedov, I., Abdullayev, Z.S., & Djalalov, S.Ch. (2019). Land Resource Optimization for Sustainable Development. Tashkent: Semenikin V.A. i dr. Kak mojno povysit effektivnost agrarno-ekonomicheskoy nauki; Goncharenko I.Yu. Formirovaniye effektivnoy modeli upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu v agrarnom sektore ekonomiki Rossii. Avtoreferat –dissert. k.e.n. – M.: Gosudarstvennyy universitet upravleniya. 2016; Matyunina O.Yu. Strategiya razvitiya agrarnogo sektora APK samodostatochnogo regiona. Dis.k.e.n. Avtoreferat. Voronej, Filial Vserossiyskogo zaochnogo finansovo – ekonomicheskogo instituta v g.Lipetske, 2006; Demyanenko S.I. K voprosu o strategii razvitiya agrarnogo sektora ekonomiki Ukrainy. – Kiyev, Jurnal “Ekonomika APK”, 2014. № 1; Dombrovskiy S.F., Taranenko L.S. Derjavne upravlinnya silskim gospodarstvom Ukraini (pravovi aspekti). – Xmel'nitskiy: Xmel'nits. Un-t upr. ta prava. 2010. – 397; Moroz O. Teoretiko – metodologichni aspekti suchastnoi paradigmi regullovannya agrarnogo rinku // Vispik VPI. 2004. – № 5. – S.16-22; Cherenko G. Agroxoldingi yak novi organizatsiyeni formi krupnotovarnogo gospodaryuvannya v agrobiznesi Ukraini // Agrarna yekonomika. – 2012. – № 1-2. – S.34-40.

muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik choralari ko‘rib chiqilgan va samarali boshqaruv yondashuvlari ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston olimlaridan U.P.Umurzoqov, A.R.Usmonov, Z.S.Abdullayev, I.Axmedov, S.Ch.Djalalov yer resurslari menejmenti va ulardan foydalanishni optimallashtirish, barqaror rivojlanishga erishish, resurslarning sifatini oshirish masalalarida tadqiqotlar olib borishgan⁵. Mazkur olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari orqali yer resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlash masalalari bo‘yicha ilmiy yondashuv va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ammo, ushbu tadqiqotlarda yer resurslarini miqdoriy va sifat jihatdan baholash, ulardan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslublarini rivojlantirish zaruriyati mavjudligi ta‘kidlangan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarda yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari, uning tashkiliy-iqtisodiy nuqtai nazardan baholashda metodologik yondashuvlar tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Bugungi kunda yer resurslarini boshqarish mexanizmi dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Shuningdek, O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini asoslarini tadqiq etish, yer resurslarini boshqarish jarayonlaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni belgilash hamda samarali boshqaruv uslublari yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy doiralar oldida turgan ilmiy muammolardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №PZ-20170926232-raqamli “Fan, ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi intellektual hamkorlikni shakllantirish va qo‘llash” (2019-2021-yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

yer resurslarini samarali boshqarish bo‘yicha xorij tajribasini tadqiq etish;

O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmi samaradorligini baholash uslublarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

O‘zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmiga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni tadqiq etish;

yer resurslaridan samarali foydalanishning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;

yer resurslarini boshqarishning institutsional-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

yer resurslarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi yer resurslarini boshqarish tizimi olingan.

⁵ Ushbu mualliflarning asarlari nomini keltiring.

Tadqiqotning predmeti yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, funksional va tarkibiy baholash, tizimli tahlil, sintez, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "yer resurslarini boshqarish mexanizmlari" tushunchasining mazmuni yer bozorini shakllantirish, yerga nisbatan mulkchilik huquqini mustahkamlash va yerlarni baholash, taqsimlash, nazorat qilish kabi iqtisodiy jarayonlarni boshqarish orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi davlat, jamoat va xo'jalik subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va institutsional vositalar tizimi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini mulk huquqi yoki ijara huquqi asosida, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijara huquqi asosida sotib olish qiymatini har oyda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashda barcha turdagi yer uchastkalarining qiymati o'n besh ish kunida to'liq to'langan taqdirda jami summaga nisbatan 20 foiz chegirma berish taklifi asoslangan;

auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang'ich narxini belgilashda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turidan kelib chiqqan holda oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llashga o'tish orqali yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

cheklangan yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish mexanizmi samaradorligini baholash uslubi takomillashtirilgan;

O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida cheklangan yer resurslaridan foydalanishning makon-dinamik tavsifini hamda ulardan foydalanish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladigan axborot massivi taklif etilgan;

qishloq xo'jaligida cheklangan yer resurslaridan foydalanishni baholashning dinamikasi ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar yo'nalishini aniqlash maqsadida miqdoriy "sabab-oqibatni" tahlil qilish asosida cheklangan yer resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini boshqarish ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydigan tizimli aloqalarni hisobga olingan holda qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning o'sishida o'z aksini topgan bir vaqtdagi tenglamalar tizimlarida ifodalangan ekonometrik modellar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi yetakchi iqtisodchi olimlarning yer resurslarini samarali boshqarish bo'yicha ilmiy-nazariy fikrlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish hamda umumlashtirish, yerdan foydalanish samaradorligini baholashdagi shkalalashtirishning ekspert natijalari hamda milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalariga asoslanganligi, jumladan, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari

kengashi va uning tarkibidagi korxonalar statistik ma'lumotlariga asoslanib jarayonni tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy xulosalar qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va qoidalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ilmiy uslubiy taklif va tavsiyalarning mamlakat yer resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarning metodologik asosini yanada kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va qoidalardan O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmi samaradorligini baholash uslublarini takomillashtirish, yer resurslarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq etish, yer resurslarini boshqarishning institutsional-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "yer resurslarini boshqarish mexanizmlari" tushunchasining iqtisodiy mazmunini yer bozorini shakllantirish, yerga nisbatan mulkchilik huquqini mustahkamlash va yerlarni baholash, taqsimlash, nazorat qilish kabi iqtisodiy jarayonlarni boshqarish orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi davlat, jamoat va xo'jalik sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va institutsional vositalar tizimi nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan nazariy va uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Menejment asoslari" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 12-martdagi 98-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va institutsional vositalar tizimi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan yer resurslarini boshqarish mexanizmlari tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini mulk huquqi yoki ijara huquqi asosida, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijara huquqi asosida sotib olish qiymatini har oyda teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashda barcha turdagi yer uchastkalarining qiymati o'n besh ish kunida to'liq to'langan taqdirda jami su-mmaga nisbatan 20 foiz chegirma berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-sentyabrdagi PF-135-sonli "Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda yer resurslarining investitsiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2025-yil 27-fevraldagi 01/03-0128/AP-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yer resurslarini sotib olish qiymatini to'lash jarayonlarini tezlashtirishni rag'batlantirish va tartibga solish imkoni yaratilgan;

auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang'ich narxini belgilashda yer uchastkasidan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turidan kelib chiqqan holda oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlar qo'llashga o'tish orqali yer resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-sentabrdagi PF-135-sonli "Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda yer resurslarining investitsiyaviy

imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2025-yil 27-fevraldagi 01/03-0128/AP-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang'ich narxini belgilashning aniqlik darajasini oshirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan mamlakat hududlarida yer resurslaridan samarali foydalanishga oid dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2025-yil 27-fevraldagi 01/03-0128/AP-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida o'rta muddatli istiqbolda O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish mexanizmlari samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq jarayon va ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, shundan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejaları bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbekistonda yer resurslarini boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida yerlarni toifalar bo'yicha tasniflashi, yer resurslarini samarali boshqarishga oid zamonaviy yondashuvlar tadqiq etilgan. Yer resurslariga nisbatan ashyoviy huquqlarni amalga oshirish shakllari, yer resurslarini boshqarishning asosiy mexanizmlari o'rganilgan va davlat yer resurslarini boshqarish tizimi shakllantiruvchi asosiy omillar tizimi taklif etilgan. Tadqiqotda yer resurslarini boshqarishning metodologik, nazariy, tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy va innovatsion jihatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati asoslab berilgan. 1-jadvalda mazkur mexanizmning ilmiy asosini tashkil etuvchi asosiy yo'nalishlar va elementlar tarkibiy jihatdan bayon qilingan.

“Yer resurslarini boshqarish mexanizmlari” tushunchasining ilmiy asosi⁶

| № | Klassifikatsiya belgisi | Ilmiy asos mazmuni va asosiy elementlar |
|----|---------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Metodologik asos | Institutsional iqtisodiyot nazariyasi asosida yer resurslarini davlat, jamoat va xususiy sektor subyektlari o'rtasida taqsimlash jarayoni |
| | | Mulkchilik munosabatlari va bozor mexanizmlarini uyg'unlashtirish nazariyasi |
| | | Yer aylanmasi va huquqiy-iqtisodiy kafolatlar tizimi |
| 2. | Nazariy jihatlar | Yer resurslarini strategik iqtisodiy kategoriya sifatida baholash |
| | | Yer bozorining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish |
| | | Yerdan foydalanish huquqlarini institutsionallashtirish va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri |
| 3. | Maqsadli yo'nalishlar | Yer bozorini shakllantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash |
| | | Mulkchilik huquqini mustahkamlash va uning iqtisodiy aylanmasiga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish |
| | | Yer resurslarining optimal taqsimotini va boshqarilishini ta'minlash |
| 4. | Funksional vazifalar | Yer resurslarining baholash, taqsimlash va aylanma jarayonlarini boshqarish |
| | | Yer bozori infratuzilmasini shakllantirish |
| | | Yerdan foydalanish huquqiy rejimini rivojlantirish va samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish |
| 5. | Tashkiliy-iqtisodiy vositalar | Yer resurslarini boshqarish bo'yicha davlat dasturlari, milliy strategik dasturlar va tarmoq dasturlari |
| | | Yer aylanmasini rag'batlantiruvchi soliq-qarz tizimi va iqtisodiy stimullar |
| | | Davlat-hususiy sheriklik asosida yer resurslarini rivojlantirish loyihalari |
| 6. | Huquqiy-me'yoriy asoslar | Yer resurslarini boshqarish va aylantirishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik |
| | | Mulkchilik huquqini muhofaza qilish va uning iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq qonunchilik asoslari |
| | | Yer uchastkalarini baholash va sotish jarayonlarida shaffoflik va adolatlilikni ta'minlovchi huquqiy normalar |
| 7. | Institutsional muhit | Yer resurslarini boshqaruvchi davlat organlari |
| | | Yerdan foydalanish jarayonida ishtirok etuvchi xususiy agentlar va jamoat tashkilotlari |
| | | Yer resurslari aylanmasini tartibga soluvchi monitoring va baholash tizimlari |
| 8. | Innovatsion elementlar | Yer aylanmasini raqamlashtirish va avtomatlashtirish tizimlari |
| | | Geoaxborot texnologiyalari va kadastr ma'lumotlarini yangilash usullari |
| | | Yerdan foydalanishning ekologik samaradorligini baholash va ESG talablarini hisobga olish tizimi |
| 9. | Ta'minlaydigan natija va ta'sir | Yer resurslaridan samarali foydalanish va aylanmaga kiritish orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash |
| | | Mulkchilik munosabatlarining barqarorligi va investitsion muhitning yaxshilanishi |
| | | Yer bozori infratuzilmasining shakllanishi va uning milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish |

Tahlillarga qaraganda, mamlakatimiz yer fondining 53,59% qishloq xo'jalik yerlari hisoblanadi va uning 9,38 foyzi yoki 4214,3 ming gektari sug'oriladigan yerlardir. Yer fondining katta qismi (26,78%) o'rmon hamda zohira (13,69%) yerlar tarkibiga qiradi (2-jadval).

⁶ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi⁷,
2024 yil (ming ga)**


| Yer fondining toifalari | Umumiy yer maydon | | Shu jumladan sug‘oriladigan yerlar | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|---------------|------------------------------------|---------------|
| | Jami | Foiz hisobida | Jami | Foiz hisobida |
| Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar | 24057,1 | 53,59 | 4214,3 | 9,39 |
| Aholi punktlarini yerlari | 223,5 | 0,50 | 51,8 | 0,12 |
| Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar | 876,3 | 1,95 | 12,6 | 0,03 |
| Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va reaksiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar | 728,4 | 1,62 | 0,6 | 0,001 |
| Tarixiy - madaniy ahamiyat molik yerlar | 14,7 | 0,036 | | |
| O‘rmon fondi yerlari | 12021,4 | 26,78 | 45,4 | 0,10 |
| Suv fondi yerlari | 827 | 1,84 | 4,7 | 0,01 |
| Zahira yerlar | 6144 | 13,69 | 2,3 | 0,005 |
| Jami yerlar: | 44892,4 | 100 | 4331,7 | 9,65 |

Yerlaridan foydalanishni yaxshilash yer resurslarini boshqarish sohasiga jalb etiladigan turli usullarning amalga oshirilishini nazarda tutadi (1-rasm). Bunda shuni ta’kidlash lozimki, yer resurslarini boshqarish, odatda, turli xildagi qishloq xo‘jaligi yerlarining uygunlashtirilishini o‘zida namoyon etuvchi yer uchastkalari bilan bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, ularni boshqarishda barcha turdagi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi butun chora-tadbirlar majmui ta’minlanishi kerak. Yer resurslarini boshqarish institusional - huquqiy asosini qonunchilik va qonun hujatlari bilan to‘ldirilgan yer huquqi tashkil qiladi. Umumiy huquqning tarkibiy qismi hisoblangan yer huquqi yer resurslarini boshqarishda amal qilinish lozim bo‘lgan umum huquqiy va maxsus tamoiyillarga asoslanadi (3-pacm). Yer resurslarini tashkiliy - boshqaruv asosini institusional normalar, buyruqlar, farmoyishlar, uslubiyotlar, vazirliklar va idoralarning yer resurslarini boshqarish masalalari bo‘yicha, funksional yoki tarmoq xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa normativ – huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Yer resurslarini boshqarishning ushbu turini ko‘rib chiqatib, shuni alohida ta’kidlash lozimki, u mazkur resurslarni boshqarishning huquqiy asosi bilan uzviy bog‘lik bo‘lib, uni to‘ldiradi. Boshqaruvni ushbu ikki turi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan.

Ushbu tamoyillar yer resurslaridan foydalanishda adolatli, shaffof, qonuniy va samarali boshqarishni ta’minlashga qaratilgan. Bu yer resurslarining barqaror va samarali foydalanishini, ularning ekologik himoyasi va xalq manfaatlariga mos ravishda boshqarilishini ta’minlaydi. Natijada, yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi.


Yuqorida qayt etilgan tamoiil va mehanizmlari hisobga olib, tadqiqotimizda yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish mazkur jarayonga jalb etilgan tuzilmalarni gorizonta va vertikal tabaqalashning yanada mustahkamlanishini nazarda tutuvchi bosqichlar ishlab chiqildi. Yer resurslarini boshqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning o‘ta muhim yo‘nalishlari ushbu jarayonning turli bosqichlari bilan uzviy bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, yer resurslarini boshqarish jarayoni qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).

⁷ Davlat yer kadastri qo‘mitasi ma’lumotlari.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer huquqi va uni boshqarish tamoyillari⁸

⁸ Muallif ishlanmasi.



2-rasm. Yer resurslarini boshqarishning asosiy bosqichlari⁹

Yer resurslarini boshqarish birinchi bosqichining roli shundan iboratki, bunda butun boshqaruv jarayoni uchun boshlang'ich baza shakllanadi. Holbuki, ushbu boshlang'ich bazaning sifati o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda turli xildagi loyihaviy va ilmiy ishlanmalarni, shu jumladan yerlardan foydalanishni va ularni muhofaza qilishni yaxshilashga yo'naltirilgan yer tuzish loyihalarini yig'ishga alohida ahamiyat berish lozim. Yer resurslarini boshqarishning ikkinchi bosqichida yer resurslaridan foydalanish sohasida yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarni va bunda yuzaga keladigan yer munosabatlarini tadqiq etishni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy tahlil, ushbu jarayonlarning avvalgi holati, barkaror tendensiyalarni belgilash, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi muammolarni aniqlash alohida o'rin tutadi.

Mazkur jarayonning uchinchi bosqichida maqsadlarning belgilab olinishi, yer resurslarini boshqarish sohasida kelgusida o'rin tutishi mumkin bo'lgan iqtisodiy jarayonlar modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi. To'rtinchi bosqichda amalga oshirilishi yer resurslarini isloh qilishni yuzaga keladigan prognoz qilinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashtirish imkonini beruvchi qarorlar ishlab chikiladi. Beshinchi bosqichda to'rtinchi bosqichda ishlab chikilgan umumiy qarorlarga yer resurslarini tasarruf etish, muhofaza qilish, ular aylanmasi va ulardan foydalanishning muayyan sharoitlarini hisobga olgan holda aniqliklar kiritiladi.

Yer resurslarini boshqarish jarayonining oltinchi bosqichida yer resurslari va yer fondining alohida toifalarini taqsimlash va ulardan foydalanishni takomillashtirishning umumiy yo'nalishini tashkil etuvchi muayyan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Boshqaruvning yettinchi bosqichida qabul kilingan boshqaruv qarorlarining amalga oshirilishi nazorat qilinadi, bu yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan keyingi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yangi sharoitlar yaratiladi. Yer resurslarini boshqarish bosqichlarining tahlili quidagi holatlarga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini keltirib chiqardi:

yer resurslarini boshqarish uchun boshlang'ich bazaning sifatini takomillashtirish. Birinchi navbatda, bu yerlarni miqdoriy va sifat jihatdan hisobga olishni, shuningdek, yer resurslarining qiymatini baholashni tashkil etish va amalga oshirishni yaxshilashga taallukli;

⁹ Muallif ishlanmasi.

xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarni zarur yer tuzish hujjatlari, shu jumladan yer resurslaridan foydalanishni ishlab chiqarish kuchlari va jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasiga mos tarzda takomillashtirishga yo‘naltirilgan xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichida yer tuzish loyihalari bilan to‘liq hajmda ta‘minlash;

unda yer resurslarini boshqarish yuzasidan biri vazifaning hal etilishi yangi yanada murakkab vazifalarni hal etish uchun imkoniyat yaratadigan doimiy ravishda amal qiluvchi iqtisodiy jaraën sifatida yer resurslarini boshqarishning amalga oshirilishini ta‘minlash.

Dissertatsiyaning **“Yer resurslarini boshqarish samaradorligini baholash va uni takomillashtirish muammolari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Yer resurslarini boshqarish samaradorligining asosiy tamoillari va omillari, yer resurslarini boshqarish bozor tizimini shakllantirish uchun asosiy shart-sharoitlar hamda O‘zbekistonda yer resurslarini samarali boshqarishning asosiy omillari tizimi taklif etilgan.

Yer resurslarini iqtisodiy aylanmaga jalb etish, bozor munosabatlarini rivojlantirish va yer aylanmasining samaradorligini oshirish maqsadida qishloq va noqishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini sotib olish jarayonida to‘lov mexanizmlari va rag‘batlantiruvchi chegirmalar tizimini joriy etish taklif qilinmoqda (3-jadval). Mazkur yondashuvda xaridorlar uchun oyma-oy to‘lov imkoniyati bilan bir qatorda, qisqa muddatli to‘lovlarni amalga oshirishda 20% chegirma berish orqali moliyaviy aylanmani rag‘batlantirish, bozorda likvidlikni ta‘minlash va yer uchastkalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

3-jadval

Yer uchastkalarini mulk yoki ijara huquqi asosida sotib olish to‘lovlarining shartlari va chegirmalar tizimi¹⁰

| № | To‘lov turi | Qo‘llaniladigan yer uchastkalari | To‘lov shartlari | Chegirma shartlari |
|----|---------------------------------|-----------------------------------|--------------------------------------------------------|----------------------------------------------|
| 1. | Oyma-oy teng ulushlarda to‘lash | Barcha turdagi yer uchastkalari | Har oy teng miqdorda to‘lanadi | Chegirma yo‘q |
| 2. | Tezkor to‘lov (15 kun ichida) | Barcha turdagi yer uchastkalari | Yer qiymati 15 ish kunida to‘liq to‘lanadi | Yer qiymatiga 20% chegirma beriladi |
| 3. | Mulk huquqi bilan sotib olish | Faqat noqishloq xo‘jaligi yerlari | To‘lov rejasi tanlash imkoniyati (oyma-oy yoki tezkor) | Qisqa muddatda to‘lov qilinsa - 20% chegirma |
| 4. | Ijara huquqi bilan sotib olish | Barcha turdagi yerlar | Oyma-oy teng ulushlarda to‘lash | Tezkor to‘lovda - 20% chegirma |

Taklif qilingan to‘lov mexanizmlari va chegirma tizimi yer bozorining institutsional rivojlanishi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq va noqishloq xo‘jaligi yer uchastkalari uchun oyma-oy teng ulushlarda bo‘lib to‘lash imkoniyatini yaratish orqali moliyaviy bosimni kamaytirish, bozorda ishtirok etuvchi subyektlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va ularning to‘lov qobiliyatiga moslashuvchan tizimni shakllantirish ta‘minlanadi. Shu bilan birga, 15 ish kuni ichida to‘liq to‘lov amalga oshirilganda 20 foiz chegirma berish mexanizmini joriy etish orqali aylanmaga qo‘shimcha rag‘bat yaratilib, tezkor to‘lovlarni amalga oshirishda manfaatdorlik kuchaytiriladi, bu esa moliyaviy mablag‘larning tez aylanishini ta‘minlab, davlat byudjetiga tushumlar oqimini barqarorlashtirishga yordam beradi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aksariyat hududlarda sug'oriladigan ekin yer maydonlari kamaygan. Kamayish 5,8 ming gektarni tashkil qiladi. Uning eng ko'p hajmi Samarqand (2,8 ming ga), Farg'ona (1,2), Namangan (1,0) viloyatlariga to'g'ri keladi. Yer maydonlari qisqarishi asosiy hollarda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer ajratish hamda hukumat qarorlari, dasturlari asosida yangi (intensiv) bog'lar va uzumzorlar barpo qilish hisobiga yuz bergan.

4-jadval

Sug'oriladigan ekin yerlarining o'zgarish dinamikasi¹¹

| Hududlar | Tegishli yillarining 1 yanvar holatiga maydonlari | | | | | | 2019 yilga nisbatan farqi (+,-) |
|-------------------------------|---------------------------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------------------------|
| | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y. | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 418,5 | 418,3 | 418,5 | 418,5 | 418,9 | 418,8 | 0.3 |
| Andijon | 202,4 | 202,1 | 200,6 | 200,4 | 200,4 | 200,1 | -0,3 |
| Buxoro | 199,7 | 199,5 | 200,1 | 200,1 | 200,1 | 200,1 | 0.4 |
| Jizzax | 260,7 | 258,8 | 259,9 | 260 | 259,2 | 259,9 | -0.6 |
| Qashqadaryo | 419,8 | 417,6 | 417,3 | 417,3 | 417,3 | 417,3 | -2.5 |
| Navoiy | 91,7 | 91,7 | 92 | 92 | 91,9 | 91,5 | -0,2 |
| Namangan | 191,5 | 190 | 188,2 | 186 | 186 | 185 | -1.5 |
| Samarqand | 246,5 | 247 | 246,9 | 246,7 | 245,9 | 243,1 | -3.4 |
| Surxandaryo | 239,9 | 239,9 | 238,6 | 238,6 | 238,4 | 238,4 | -1.5 |
| Sirdaryo | 249,9 | 249,4 | 249,2 | 249 | 249 | 248,9 | -0,1 |
| Toshkent | 297,8 | 295,7 | 295,7 | 292 | 289,9 | 289,5 | -8.3 |
| Farg'ona | 247,7 | 247,5 | 247,6 | 245 | 243,2 | 242,0 | -5.7 |
| Xorazm | 205,5 | 205,2 | 205,3 | 205,3 | 205,3 | 205,3 | -0.2 |
| Toshkent sh. | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 1,2 | 2,4 | 2,3 | 2.2 |
| Jami: | 3271,7 | 3262,2 | 3259,9 | 3252,1 | 3247,9 | 3242,1 | -29.6 |

Yer resurslarini boshqarish bozor tizimini shakllantirish ko'rib chiqilgan omillari ta'sirining samaradorligi ularning rivojlanish darajasiga bog'lik bo'lib, u yer resurslaridan foydalanish va ularni boshqarish sohasiga jalb etilgan sub'yektlarga ta'sir etishning ko'plab turlari (hukukiy, tashkiliy-taksimlash, iqtisodiy va ijtimoiy-ruhiy) bilan motivatsiyalanadi. Tadqiqotda, faqat yer resurslarini samarali boshqarishning asosiy omillari tizimi taklif etildi. O'zbekiston yer resurslarini samarali boshqarishning yuqorida keltirilgan omillarini rivojlantirish ob'yektiv tarzda quyidagi ishlarni bajarilishni talab etadi:

yer resurslarini boshqarishning huquqiy bazasini yanada rivojlantirishni, shu jumladan zarur qonun osti hujjatlarini ishlab chiqish;

foydalaniladigan yerlarning sifati va miqdoriga qarab yer uchun to'lovlarning tabaqalanishini chuqurlashtirish;

yerlarning toifalari va yerlardan foydalanishning xo'jalik shakllariga qarab yerdan foydalanishni ro'yxatga olish yig'imlarining tabaqalanishini chuqurlashtirish;

yerlardan foydalanishning turli shakllariga mos ravishda yerlarni yaxshilash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish turlari va usullarini iqtisodiy rag'batlantirish chora-tadbirlarini kengaytirish va aniqlashtirish;

yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazoratni takomillashtirish, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni oshirish;

¹¹ O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi ma'lumotlari.

yer resurslarini boshqarishning jamoat shakllarini rivojlantirish;
yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni yaxshilash ma'naviy rag'batlar rolini oshirish nazarda tutadi.

Tashkil etilayotgan fermer va dexkon xo'jaliklarining asosiy ishlab chiqarish-xo'jalik tavsiflarini tahlil qilib, shuni alohida ta'kidlash lozimki, yerlardan xo'jalik maksadlarida foydalanishning ushbu shakllari asosiy qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga aylan ishgan. Mazkur xo'jaliklarni boshqarishning asosiy o'lgam ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

Fermer va dexkon xo'jaliklari boshqarish o'lcham ko'rsatkichlaridan ko'rib turganimizdek, bundan keyin ham yer resurslarini boshqarishda yerda xo'jalik yuritishning ushbu shakllarini mustahkamlashga, ushbu xo'jaliklarning optimal o'lchamlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

5-jadval

Fermer va dehqon xo'jaliklarini boshqarish tizimidagi asosiy ko'rsatkichlar¹²

| Ko'rsatkichlar | 2005 y. | | 2010 y. | | 2023 y. | | 2023 y.da 2005 y.ga %da | |
|---------------------------------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|-------------------------|--------------|
| | Fermer xo'j. | Dexkon xo'j. | Fermer xo'j. | Dexkon xo'j. | Fermer xo'j. | Dexkon xo'j. | Fermer xo'j. | Dexkon xo'j. |
| Xo'jaliklar soni, mingta | 125.668 | 4544.0 | 1170.95 | 4377.1 | 2228.22 | 4692.9 | 2,5 m. | 107,2 |
| Biriktirilgan yerlar maydoni, ming ga | 3775.3 | 691.3 | 5786.8 | 676.2 | 5987.8 | 693.6 | 2,9 m. | 102,6 |
| O'rtacha yer maydoni, ga | 30.0 | 0.15 | 26.7 | 0.15 | 36.7 | 0.15 | 116.0 | 100,0 |
| Yalpi mahsulotdagi ulush, % | 24.5 | 60.2 | 24.0 | 63.0 | 34.7 | 62.7 | 2,4 m. | 99,5 |

Er fondining taqsimlash va undan foydalanishda yuz bergan o'zgarishlarda quyidagi masalalarni hal etishni o'z ichiga oluvchi davlat tomonidan tartibga solish muhim rol o'ynadi, ya'ni:

yer resurslarini boshqarish, muhofaza qilish va ulardan foydalanishning huquqiy bazasini shakllantirish, mustahkamlash va rivojlantirish;

hokimiyat va boshqaruv organlarining yerlarni foydalanishga berish, olib ko'yish, muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish va ushbu sohada nazoratni amalga oshirish vakolatlarini belgilash;


yerdan foydalanuvchilarning yer resurslaridan foydalanish jarayonidagi huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilash va b.

Hozirgi vaqtda yer to'g'risidagi qonun hujjatlari respublikamizda yerlardan foydalanish va yer munosabatlarini tartibga solish borasidagi asosiy huquqni belgilovchi hujjatlar hisoblanadi. Mazkur huquqiy bazani mustahkamlashda qabul qilingan "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dexkon xo'jaligi to'grisida", "Davlat yer kadastr to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari yerlardan xo'jalik maqsadlarida foydalanishning bozor mexanizm moslashtirilgan shakllarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi (shu jumladan, yerga soliq solishni, ipoteka va garov evaziga kreditlashni tartibga soluvchi) boshqa qonun hujjatlari muxim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining yer-huquqiy bazasi asosiy tarkiiy qismlarining amalga oshirilishi ko'plab nizomlar va uslubiyotlarni ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi.

¹² Muallif ishlanmasi.

Ulardan ayrimlarining ishlab chiqilishi yerlarni miqdoriy va sifat jihatdan hisobga olishni yanada aniq reglamentga solish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va shahar hududlarining yerlari bo'yicha yerlarni baholash ishlarini o'tkazish, yer uchastkalarini meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yakka tartibda uy-joy kurish uchun realizatsiya qilish, yerlardan foydalanishni nazorat qilish va hokazolarga ko'maklashgan bo'lar edi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer-huquqiy bazasining asosiy tarqibiy qismlari¹³

Shu bilan birga yerdan foydalanishni va yer resurslarini boshqarish huquqiy bazasining rivojlanishi, O'zbekistonda amalga oshirilaётgan Strategik islohotlarning umumiy jaraёnidan ancha ortda qolmoqda. Amaldagi yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ko'plab qoidalari real yuzaga kelaётgan yer munosabatlariga mos kelmagan holda, bozor aylanmasiga jalb etiladigan yer uchastkalarining huquqiy maqomiga aniqliklar kiritishga to'sqinlik qiladi, shuningdek, bozor aylanmasiga jalb etiladigan yer uchastkalarining turlari va toifalarini kengaytirishga hamda mazkur jarayonda ishtirok etuvchi yer uchastkalari bo'yicha ruxsat etilgan operatsiyalar sonini oshirishga xizmat qilmaydi.

Shularni hisobga biz, yer resurslarni boshqarishning tarkiiy qismlarini umumlashtirishga haraqt (2-rasm) qildik.

Tizimli samaradorlik boshqaruv qanchilik oqilona tashkil etilganligiga, ya'ni bo'g'inlar tarkibi va soniga, ularning bo'ysunganligiga, funksiyalarning taqsimlanishiga bog'liq. Yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish mazkur holatda to'ligicha davlatning vakolatiga kiradi (davlatning majburiyatlari jumlasiga, birinchi navbatda, ishda takrorlanishga barham berilishini ta'minlash, hududiy, yalpi va tarmok darajasida barcha yer resurslari o'rtasida o'zviy o'zaro hamkorlikni shakllantirish kiradi).

Ushbu holatda, bizningcha, yer resurslarini boshqarish tizimining samaradorligini baholash uchun yer uchun to'lanadigan haqlarning stavkalar miqdorlari bo'yicha qiyoslanadigan quyidagi nisbatidan foydalanish mumkin:

¹³ Muallif ishlanmasi.

$$K_{\text{boshq. samara}} = \frac{T_{\text{amal.xara}}}{T_{\text{his.xara}}}$$

bu yerda $K_{\text{boshq. samara}}$ – yer resurslarini boshqarish samaradorligini koeffitsiyenti;

$T_{\text{amal.xara}}$ – yer uchun amalda to‘langan haqlar;

$T_{\text{his.xara}}$ – yer uchun to‘lanadigan haqlarning hisob-kitobi.

